

**MAKTAB O'QUVCHILARIGA CHET TILINI INTERFAOL
USULLAR ORQALI O'RGATISH**

Allaberganova Nozima

SamDCHTI 2-bosqich talabasi

Annotatsiya : Ushbu maqolada darsga o'quvchining idrok etish darajasidan kelib chiqqan holda yondashish,darsni ko'ngilochar va erkin muhitda innovatsion tarzda, o'yinlar orqali tashkillashtirish masalasi ko'rib chiqilgan.

Abstract : Annotation: this article addresses the issue of approaching the lesson based on the level of perception of the student, organizing the lesson in an innovative way, through games, in an entertaining and free environment.

Keywords:innovatsion,inklyuziv,interfaol,konferensiya,namoyishlar,kadr,dastur,sensor.

Ma'lumki har bir rivojlanayotgan davlatda tilga ehtiyoj ham tobora ortib boradi.Dunyo bo'ylab nazar solar ekanmiz ko'pgina rivojlangan davlat tillari umumjahon tili sifatida yer yuzi bo'ylab insonlar nutqiga tez fursatda singib bormoqda.Masalan, ingliz va rus tillari deyarli barcha davlatlarda yuqori qiziqish bilan qaraladigan va eng ko'p o'rganiladigan tillardir.Bugungi kunda xalqaro biznes uchrashuvlar,namoyishlar,konferensiya va sammitlar ko'p hollarda ushbu tillarda olib boriladi.Davlatlar'aro o'zaro shartnomalar shu chet tillarida tuzilib,imzolanadi.Bu esa tilga bo'lgan zaruriyatni kun sayin oshib borishiga sabab bo'ladi.Shu bois yurtimizda ham tilga e'tibor alohida takidlanadi.Ayniqsa,mustaqillikdan keyin ko'plab sohalardagi o'zgarish va yangiliklar qatori ta'lim tizimiga ham bir nechta xorijiy tillarni olib kirish masalasi keng miqyosda ko'rib chiqildi va barcha ta'lim bosqichlariga va o'qitish ta'lim sistemasiga ko'plab chet tillari kiritildi.Jumladan,ta'lim sohasida bir nechta yangi qarorlar qabul qilinib,mavjud qonunlarga o'zgarishlar kiritildi.Ta'lim to'g'risida alohida qonun va " Kadrlar tayyorlash milliy dasturi "ning qabul qilinishi ta'limning milliy modelini shakllanishiga,rivojlanishiga va sohadagi mavjud

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

muammolarga yechim bo'ldi.Ta'lim sohasida xalqaro hamkorlikning yo'lga qo'yilishi natijasida bir qator yutuqlarga erishildi va kamchiliklar ustida ishlanildi.

Yangi qonunlar bo'yicha ta'lim olish shakllarining tasnifi kengaytirilib,ishlab chiqarishdan ajralgan (kunduzgi) va ajralmagan (kechki,sirtqi,masofaviy) ta'lim tizimlari joriy etildi.Jismoniy,aqliy,sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsoni bo'lган bolalar (shaxslar) uchun inklyuziv ta'lim qonuniy ijrosi yo'lga qo'yildi.Ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari huquqiy maqomiga ko'proq e'tibor qaratilgan holda pedagog xodimlar,ta'lim oluvchilar,ularning ota-onalari va boshqa qonuniy vakillari huquq va majburiyatlari kafolatlandi.Ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarini ijtimoiy himoya qilish chora-tadbirlari belgilandi.Ta'lim tashkilotlari tomonidan berilayotgan ta'limning mazmuni va sifati ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlari nomunofiqqliklar aniqlangan hollarda – ularni bartaraf etish yuzasidan ularga taqdimnomalar kiritildi.Zero,berilayotgan ta'lim-tarbiyaning qay darajada aniqligi va tog'rilikka yo'naltirilayotgani,zamonamizga mosligini ta'minlash eng muhim masalalardan biridir. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim tashkilotlari bolalarning kelajakda kasb tanlashida va aniq bir maqsadda davom etishida poydevor vazifasini o'taydi. Bolaga qanchalik kichik yoshdan bilm berilsa,nimayiki o'rgatilsa bola xotirasining eng qiymatli va o'chmas qismi bo'lib qoladi.Xalqimizda "Yoshlikda olingan bilm-toshga o'yilgan naqsh kabidir" deb bejiz aytilmagan.Shu boisdan bolalarni o'rganishga ilk qadamlarini qo'yan onlaridan boshlab yangi narsalarga,yaratuvchanlikka va tilga qiziqtirilsa bu qiziquvchanlik hech so'nmas chiroq kabi hayotlari mobaynida porlab turadi.Ammo har bir narsaning o'ziga yarasha mashaqqati bo'lganidek ,o'rganish ham o'rgatish ham alohida shijoat talab etadi.Pedagoglar eng mas'uliyatli kasb egalaridir.

Ta'lim berish metodikasidagi yangiliklar eski uslublardan chekinish,maktablarlardagi bir xillikka asoslangan o'qitish sistemasidan voz kechish uchun asos bo'la oladi.Bugungi kunimiz butunlay texnologiyalarga yonma-yon tarzda kechyapti,yurtimizning bundan chetda qolgan burchagi deyarli bo'lmasa kerak.Ta'lim tizimiga ham har xil turdag'i innovatsiyalar allaqachon kirib borganligi bois maktablarda oddiy uslubda dars o'tish nafaqat o'quvchilargi balki o'qituvchilar

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

uchun ham zerikarli tuyuladi. Shu bois, darslarni zamonaviylikka asoslangan holda o'quvchi e'tiborini jalb qiluvchi metodlarda olib boorish maqsadga muvofiqdir. Interfaol usullarda dars o'tishga ko'plab misollar mavjud. Masalan yangi so'zlarni kichik hikoyachalar tuzish orqali o'rgatish mumkin. Sir emaski, til o'rganishdagi eng asosiy omil bu lug'at yodlash. Kop'chilik o'quvchilar xatto kata yoshdagi til o'rganuvchilar ham chet tilidagi so'zlarni yod olishda juda qiynalishadi. Ko'pchilik buni uddasidan chiqish uchun har xil metodlarni sinab ko'radi va bu ba'zan yordam beradi ko'p hollarda esa yo'q. Menimcha yangi so'zlarni o'zaro bir-biriga bog'lab hikoyacahalar tuzish mashqi bajarish orqali yod olinsa tez va ancha esda qolarli bo'ladi. Buni qanday qilish mumkin ?

Darsda o'quvchilar yangi so'zlar bilan tanishtirilgandan so'ng, ularga guruh bo'lib yoki yakka holda berilgan yangi lug'atlarni qatnashtirib o'zлari hohlagan mavzuda hikoya tuzish vazifasi topshiriladi. O'quvchilar har biri alohida hikoya tuzishsa ham bajarib bo'lishganidan so'ng ovoz chiqargan holda butun sinfga o'qiberishadi. Sinfdagи bari bir xil yoshdagi bolalarning qiziqishlari va dunyoqarashlari ham bir-birinikidan unchalik farq qilmaydi va deyarli bir xil bo'ladi. Shunday ekan o'zлari yaratgan hikoyalar ham ular uchun eng qiziqarli hisoblanib maroq bilan eshitishadi. Bu vazifani bir nechta guruhlarga bo'lingan holda ham qilishlari mumkin. O'rtacha 4-5 ta o'quvchidan iborat guruh o'zaro birgalikda bitta hikoya tuzadi va uni boshqa guruh vakili bo'lган sinfdoshlariga aytib berishadi. Inson voqealilikka qiziquvchan va voqeali narsalarni chuqur eslab qolishga moyil bo'laadi. Masalan biz ilmiy, ma'ruzaviy kitoblar o'qiyimiz yoki eshitamizu lekin xotiramizga muxlash qiyin bo'ladi. Oradan fursat o'tgach darrov unut bo'ladi, lekin agar birorta do'stimiz uyida ertalab bo'lган voqeani yoki bobosi aytib bergen o'tmish haqidagi suhbatdan bir parchasini aytsa bizga qiziq tuyuladi va unutmaymiz. Hayolimizda jonli gavdalana vergani sababxatto boshqalarga ham beramiz.

Bundan tashqari darsni videoroliklar, komputer televizor va boshqa texnologik qurilmalardan foydalangan holda olib borish ham ko'ngilochar dars mahsulidir. Bugungi kunda ta'limga yuqori darajada e'tibor berilayotgani sabab

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

maktablarda har bir xona eng yangi jihozlar bilan to'ldirilgan.Samarali dars berish maqsadida sinfonalar televizor va komputer,elektron doskalar bilan jihozlangan.Demak o'qituvchi bemalol darsni innovatsion usulda o'tishi mumkin.

Darsni eskilikdan uzoqlangan holda toliq ekranda o'tish o'quvchiga odatdagidan maroqliroq tuyuladi.Chunki inson eshitgan va yozganlaridan ko'ra ko'proq ko'rganlarini uzoq muddatga eslab qola oladi.Shunday ekan mavzuni ma'ruzida talqinida emas aksincha xonadagi televizor orqali video sifatida ko'rsatiberish ko'proq foydali.Bunda ko'rsatuvdan keyin o'quvchilar tomosha qilgan dars mavzusini o'zlari qayta mustaqil holda tushunganlarini qog'ozga tushirishsa xotiraga chuqur o'rnatadi.Sinfda nechta o'quvchi bo'lsa ularning har biri mavzu videosining turli qismlarini eslab qolishlari mumkin va nimani anglaganliklari haqida turlicha ma'lumotlar yozishdi.Hamma yozib tugatgach bir-birlariga o'qib berishadi,sinfdoshlarining bir-birining turli xil bilimlarini tinglagach mavzuning esda qolmagan qismlarini ham eslashadi va mavzu guruh bo'yicha to'liq qayta takrorlanadi.Undan keyin qisqacha savol javob va ko'ngilochar amaliy mashqlar qilinsa o'tilgan mavzu yanada mustahkamlanadi.

O'ylaymanki darsxonalarining fanga mos ravishda bezatilgan bo'lisi ham katta ahamiyat kasb etadi.Masalan devoriy plakatlar,chet tilida yozilgan ranglar,hayvonlar,tana a'zolari va hokazolar tasvirining bo'lisi darsda foydalanish va tushuntirish uchun yaqin ko'makchi bo'la oladi.Bundan tashqari darsni yanada qiziqarli qilishning yana bir ajoyib metodi shundan iboratki,bunda o'quvchilarga sinfonasini o'zlari o'rganayotgan chet tili faniga va o'tayotgan mavzulariga mos ravishda bezatish vazifasi topshiriladi.Bu ish haftalik muddatda bajarilishi mumkin.O'quvchilar bir hafta mobaynida o'tgan mavzulari asosida devoriy ko'rgazmalar,rasmlar va o'zlariga qiziq bo'lgan har qanday turdag'i narsani tayyorlab kelishadi.Ularda bir haftalik mavzularning bari jamlangan bo'lisi lozim.Bunda ham har bir o'quvchi o'ziga yarasha turli xil uslubda mavzular bo'yicha har xil narsalar tayyorlab kelishadi va birgalikda ko'rib chiqishadi.Biri qamrab olishni unutgan mavzuni ikkinchi o'quvchi bajargan bo'lisi mumkin va barchasi birgalikda qayta esga olishadi.Bu vazifani doimiy bajarilishi va

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

o'quvchilarda hohish susaymasligi uchun muntazam rag'batlantirib borilishi darkor.Masalan turli nomdagi nominatsiyalar yoki meva turlari sovg'aga berilsa bo'ladi.Hech bir o'quvchi nazardan chetda qolib ketmasligi kerak,shu boisdan biriga "'Eng tezkor'" ikkinchisiga"'Uddaburon'" boshqasiga "'eng chiroyli ko'rgazma'" kabi nominatsiyalar o'quvchilarning bariga berilsa har safar tirishqoqlik bilan harakat qilishadi.Har safar yangi nominatsiyalarga ega bo'lishga urinishadi.Maktab yoshidagi bolalar uchun bularning bari o'ta qiziqarli bo'lishiga aminman.Chunki ular juda harakatchan,tez o'zgaruvchi,hayotga maqsadlarini endi belgilayotgan,biroz hayolparast va yaratuvchanlikka,yangilikka intiluvchi bo'lishad.

Xulosa qilib aytganda,maktab o'qituvchisining oldida o'quvchilarining ilmiy yo'llini bir tartibga solish kabi o'ta mas'uliyatli bir vazifa turadi.Darsga alohida e'tibor bilan qaralishi va o'quvchini fanga qiziqtira olish o'ta muhim masala.Shu bois darslarda o'ta zamonaviylikka e'tibor berilib,o'quvchi uchun erkin,ko'ngilochar muhit yaratilsa ko'zlangan maqsadga erishish ya'ni interfaolilikka yo'l ochish mumkin.

Foydalilanigan adabiyotlar :

1. David A.J,Eggen ,P Kauchak.Methods for teaching : Promoting student learning [M] 2002.
2. Feng Wang , Applying Technology to inquiry-based Learning in Early Childhood Education [J].